



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
GUMANITAR FANLAR FAKULTETI
FAKULTETLARARO IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASII

FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI



23-24-aprel, 2025



**“FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
TASHKILIY QO'MITASI**

Tashkiliy qo'mita raisi:

G'.I. Muxamedov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori.

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

B.X. Eshchanov

S.B. Qorayev

D.B. Axmadjanov

O.A. Ortiqov

S.X. Gayupova

R.A. Ikramov

L.K. Axatov

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor.

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor.

Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor.

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i.

Gumanitar fanlar fakulteti dekani.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri.

Tashkiliy qo'mita ishchi guruhi:

Madalimov T.A.

Jo'rayev H.A.

Koshanova N.M.

Tashmetov T.X.

Karshiyev Sh.S.

Neshitov P.Yu.

Xaytmetov R.K.

Muhammadiyev L.G.

Nafasov A.K.

Eronov S.Q.

Saidusmanov B.A.

Usmanov A.X.

Sunnatov T.R.

Tuganova L.Dj.

Toshtemirov R.A.

Ilmurodova f.Sh.

Yo'ldoshev U.X.

Abdullayeva D.N.

Sa'dullayeva M.X.

Xolmo'minov G.B.

Miraxmedova Sh.N.

Yakubov X.M.

Imomova U.I.

Tadjibayeva R.O.

Umarova Sh.B.

Yursinboyev J.M.

Nurmanov Sh.J.

Abdullayev T.S.

Maxkamov D.Sh.

Ilyosov Sh.B.

Burliyev U.K.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

SHARQ VA G'ARB: MADANIYATLARARO TAFOVUT, TA'SIR VA INTEGRATSIYA

Koshanova Nilufar Maxsudovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda Sharq va G'arb madaniyatlarining o'ziga xos jixatlari va ular o'rtasidagi tafovut va o'xshashliklar o'rganilgan. Ikkala mintaqada sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari xususida antik davrdan to-yangi davrgacha bo'lgan mutafakkirlarning qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sivilizatsiya, g'arb madaniyati, antroposentrizm, madaniy tafovut, oilaviy qadriyatlar, tradisionlaizm, "buyuk xato", multikulturizm, panergik oqim, madaniy chegaralar.

G'arb va Sharq madaniy olamining turfaligi masalasiga antik davrlardan oq Geradot, Platon, Aristotel, Strabon boshqalar tomonidan e'tibor qaratilgan. Ular madaniy farqlarni taqqoslash orqali o'z-o'zini anglash zarurligini bilishgan. Madaniyatshunoslar G'arb va Sharq madaniy tafovutlarni doimo qiyoslab, farqlab kelishgan va ular o'rtasidagi farq bugungi kunda bahsli mavzulardan hisoblanadi. Madaniyatlararo farqni noto'g'ri tushunish ochiq muammolardan biri hisoblanadi.

Qadimgi davrlardan oq g'arb madaniyati vakillari sharq haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'lganlar. Xususan yunon mutafakkirlari, tarixchilari va siyosatshunoslari g'arbni sharqqa qarama-qarshi qo'ymaganlar, balki skifmi, osiyolikmi va boshqasimi bundan qat'iy nazar madaniyatli yunonni madaniyatsiz "varvar" bilan solishtiradilar. Tarix otasi hisoblangan Geradot garchi g'arbiy Osiyo xalqlarida "varvarlik" sifatini ko'rganligini aytsada, qadimgi davrlarda vahshiylikni sharq dunyosining atributi deb hisoblanmagan. Sharq donishmandlari, matematiklari, tabiblariyu astranomlari yunon donishmandlarini hayratga solganligi fikrimizni asoslaydi. Qadimgi Rim manbalarida ham Sharqga G'arb antipodi sifatida qaralmaganligini ko'rishimiz mumkun. Jumladan Korniliy Tatsit Sharq haqidagi alohida bo'limlarda Rim tarixini tasvirlash uchun zarur darajada ma'lumotlar uchraydi. Yunon geografi va tarixchisi Strabon sharq tushunchasidan umuman foydalanmagan. Shuning uchun uning sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlarga munosabati noaniq. Jumladan u parfiyalalarni Rimning raqibi sifatida tasvirlagan bo'lsa, misrliklar va hindlar haqida hurmat bilan gapiradi.

Ilk o'rta asrlarga kelib Sharq mamlakatlari haqidagi qarashlarda ikki xil yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkun. Qadimgi mualliflarning asarlaridan kelib chiqib o'rta asr kishilarida sharq haqidagi afsonaviy muloxazalar ustunlik qilgan. G'arbliliklar cheklangan ilmiy ma'lumotlar tufayli Sharqni qimmatboho toshlarga,

metallarga boy o'lka, ajoyib odamlar va antiqa hayvonlar yashaydigan joy sifatida tasavvur qilishgan. Sharq haqidagi bilimlarning boyitilishi XI asr oxirida boshlangan salib yurishlari asosida yuz beradi. Keyingi bosqichda Yevropa va Sharq mamlakatalri o'rtasida intensiv aloqalarning boshlanishi Yevropa madaniyatiga Sharq madaniyatining sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi bilan harakterlanadi. Shu o'rinda Sharqqa tashrif buyurgan Yevropa sayyohlari o'z taassurotlarini kundaliklarida yozma ravishda qayd qilishganliklari e'tiborga molikdir. Ayniqsa 1271-1295 yillardagi Uzoq Sharqqa bo'lgan sayyohatini aks ettirgan Marko Poloning "Marko Polo" kitobi Sharq g'aroyibotlari haqida fikr yuritganligi sababli, bu kitob keyinchalik undan ajoyib taassurot olgan X.Kolumbning jur'at qilib sharqqa qarab dengiz yo'lini ochishga intilishi va "buyuk xato" tufayli Amerikaning kashf qilinishi bizga sir emas.

O'rta asr kitobxonlarining Sharqqa bo'lgan qiziqishlari yuqori darajada ekanligi mazkur kitobning turli tillarda ko'plab nusxalar va tillarda tarjima qilinganligi bilan izohlash mumkun. Sharq bilan yaqinroq tanishish afsonaviy tasavvurlarning asta-sekin yo'qolishiga sabab bo'ladi. Umuman olganda o'rta asrlar Yevropasida Sharq haqidagi tasavvurlar ancha ijobiy bo'lgan. Ularning fikricha Sharq boy, mo'l-ko'l va aholisi esa bilimli edi. Dunyoda turli xalq va millatlar madaniyatida farqlar bilan birga umumiy o'xshash tomonlari mavjud. Sharq xalqlari dunyoqarashini ming yillardan buyon shakllangan diniy ana'analar doirasida shakllangan uzluksiz ma'naviy tajribaga asoslasi, Yevropa madaniyatining o'ziga xos xususiyati uning realligi va antroposentrizmi bo'lsa, sharq jamiyatida ana'anaviy turmush tarzi, oilaviy qadriyatlarga e'tibor qaratiladi.

Sharq mintaqasi xalqlari madaniyatini o'rganishda rus tadqiqotchilaridan V.V.Bartold, N.I. Konrad, S.L.Vasilev, A.M. Ushkov, T.P.Grigoryeva, N.S Nikolayeva, J. Nidam va boshqalar samarali izlanishlar olib borganlar. G'arb olimlari tomonidan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi tarixini mafkuralashtirish, Sharq mamlakatlari badiiy merosini baholash masalalari bo'yicha bir qancha ilmiy munozaralar bo'lib o'tdi. Mazkur munozaralar natijasida 1950-yillar o'rtaliga kelib ilmiy tadqiqotlarda "yuqori markazlashtirilgan" tendensiya yuzaga keladi. G'arb bilan Sharqni qiyoslashda ob'yektlar xilma-xil. Jumladan, Sharqiy Yevropa-G'arbiy Yevropa, Xitoy, Hindiston, Janubiy-Sharqiy Osiyo va hokazo. Siyosiy tafovutlar haqida mashhur rus olimi, professor A.Yu Melvill shunday deydi: "Tafovutlar shu qadar katta va misli ko'rilmaganki, zamonaviy siyosatshunoslik jamiyati oldida siyosiy o'zgarishlar haqidagi g'oyalarni sezilarli konseptual yangilash vazifasi turibdi". Uning fikricha madaniyatlarning xilma-xilligini tushunish tabiiy ravishda asta-sekin bo'lishi kerak.

Xantington o'zining "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va dunyo tartibini tiklash" kitobida yangi dunyoda mojaroning asosiy manbayi endi mafkura, iqtisod bo'lmaydi, balki turli sivilizatsiyalar asosidagi madaniyatlardagi farqlar bo'ladi", - deya haqli fikrni aytgan edi.⁶ G'arb mamlakatlariga turli sabablar tufayli borayotgan sharq xalqi o'z an'alarini saqlab, yashashni istaydi, bu esa multikulturizm va bag'rikenglik muammolarini yuzaga keltiradi.

Sharq sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Tradsionlaizm- o'rnatilgan shakllarni takror ishlab chiqarishga yo'naltirganlik.
2. Axloqiy irodaviy jixatdan dunyoni bilish va o'zgartirishga emas, balki tafakkur, xotirjamlik, tabiat bilan sirlik, ichki ruhiy hayotga e'tibor berish.
3. Siyosiy hayotda despotizm shakli, ya'ni unda jamiyat ustidan davlat mutlaq ustunligining mavjudligi va h.z.

XIX asrning o'rtalariga kelib texnik va iqtisodiy jixatdan Sharqqa nisbatan G'arb mamlakatlari ancha rivojlanadi. Yevropa intellektual, ilmiy jixatdan ancha oldinga chiqadi. Shu o'rinda G'arb ma'rifatparvarlari jaxon tarixining umumbashariy sxemasini qurishga intilib, Sharq madaniyatini ko'rib chiqishda universallik tamoyiliga asoslanadilar. Bu yondashuvga ko'ra dastlabki sivilizatsiya, madaniyat Sharqdan boshlangan bo'lsada, tarixiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida G'arb madaniyatining rivojlanish chizig'ini umuminsoniy deb hisoblaydilar. Bu yondashuv tarfdorlari "Sharq madaniyatining qadri o'tmishda bo'lsa, hozirgi davrda G'arb modeli madaniy taraqqiyot modeli hisoblanadi,-degan fikrni asoslashga harakat qiladilar.⁷

Sharq va G'arb madaniyati integratsiyasi, muloqat qilish imkoniyati, ularning fundamental mosligi yoki nomuvofiqligi, o'ziga xos xususiyatlari, madaniyatini o'z mansubligidan kelib chiqqan mutaxassislarining ideallashtirishi holatlari mavjud. G'arb mutaxassislari Sharq mamlakatlarining yangi davrda g'arb modernizatsiyasidan farqli ravishda arxaizmi va passivligini, XX asrda ayrim sharq mamlakatlarining g'arbona modelga o'ta boshlashi xalq tomonidan salbiy qabul qilinganligi, xususan, Islom fundamentalizmining kuchayishiga sabab bo'lganligini ta'kidlaydilar. G'arbliklar tomonidan Sharq madaniyatini idrok etish va uni o'z madaniyatlari bilan qiyoslashga urinishlar ma'rifatparvarlik davridan boshlab adabiyotlarda uchraydi. Xususan, Leybnits, Volter, Volney, Yusti, Russo, Viko, Gerder kabi mutafakkirlar o'z asarlarida u yoki bu jixatdan sharq mavzusini

⁶ Хантингтон С. Столкновение цивилизаций . Нью-Йорк, Иллинойс, 1996 г.; / пер. С англ. Т. Велишева, И. Новикова. М.: Аст, 2003. –С.286.

⁷ Н.Н. Малыхова Трансформация представлений о Востоке в западной культуре //дисс.канд. философ 24.00.01. М.2005. –С.130.

ko'targanlar. Sharq madaniyatiga berilgan baholarga ko'ra g'arb madaniyatshunoslarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. **Panergik oqim tarafdorlari-** Leybnits, Volter, Kesen va boshqalar Sharq madaniyatidan hayratlanadilar va Yevropa uchun namuna sifatida qaraydilar.
2. **Tanqidiy fikr tarafdorlari-** Monteskye, Russo, Volney va boshqalar esa Sharq madaniyatida fuqarolik erkinligining yo'qligi sababli Yevropaga nisbatan Sharq madaniyatini salbiy baholaydilar.

Bugungi global madaniy aloqalar bilvosita zamonaviy dunyoning insonlarni biralashtiruvchi ma'naviy omili nima?,-degan haqli savolni yuzaga keltiradi. Bu shubhasiz global madaniy gegemonlik, shu bilan birga insoniyatning imtiyozli madaniy mavqesi muammosini yuzaga keltiradi. Rus madaniyatshunosi N. Solovyov madaniy zo'ravonlik ehtimoli tufayli hayot-mamot kurashi tahdidi yashiringan deydi. Sharq va G'arb xalqlarining ming yillar davomida rivojlangan an'analari, tafakkur tarzi, dunyoqarashi bugungi globalizatsiya jarayonining tezlashib borayotgan dinamikasiga, integratsiya jarayonlariga qarshi tura olishi, xalqlarning milliy o'zligini saqlab qolishini taqozo qiladi.

Yangi davr faylasuflaridan G.V. Hegel (1770-1731 y) o'zining tarix falsafasida madaniyatlarning o'zaro ta'siri(aloqlari) muammosiga to'xtaladi. Hegelning fikricha dunyo tarixi "Sharqdan G'arbga yo'naltirilgan". Uning fikricha Osiyo madaniyat tarixining boshlanishi, Yevropa esa oxiri hisoblanadi. [2] Hegelning bunday mulohazalariga hududiy mansubligi ta'sir qilmagan deb umid qilamiz.[3] Uning fikricha, ruh taraqqiyoti tamoyilining ilk ko'rinishlarini Fors tarixida (Avesto) da uchratish mumkin. Uning fikricha forslar birinchi tarixiy xalqdir. Hegelning tarix falsafasida ruhning shakllanishi madaniyat bilan bog'liq. Madaniyatlararo aloqalar xalqning tarixiy o'zligini anglashining kuchayishiga sabab bo'ladi. Aynan Old Osiyo suv yo'llari orqali O'rta yer dengiziga chiqishi orqali "rivojlanish tamoyili"ni amalga oshiradi. Madaniyatshunolar tomonidan aniqlangan madaniy-tarixiy tiplar o'ziga xos va bir-biridan mustaqil bo'lib, ularning har biri o'zining ma'naviy tabiatining o'ziga xos xususiyatlaridan va hayotning alohida tashqi sharoitlaridan kelib chiqqan holda yuzaga keladi. Danilyevskiyning fikricha "Bir madaniy-tarixiy tipdagi sivilizatsiyaning boshlanishi boshqa turdagi xalqlarga o'tmaydi. Har bir madaniyat o'zi uchun begona, oldingi sivilizatsiyaning katta yoki kamroq ta'siri ostida rivojlantiriladi. Uning fikricha, Misr va Finikiya Yunonistonga, Yunoniston Rimga, Rim va Yunoniston Yevropa madaniy -tarixiy tipiga ta'sir qilgan. Shunday qilib, olimning fikricha, madaniy oziqlanish madaniy ta'sirning eng maqbul shakli va madaniy va tarixiy tiplarning o'zaro bog'liqlik usulidir. Shu o'rinda nemis faylasufi Ostvald Shpenglerning (1880-1936) "Yevropaning tanazzuli" asaridagi Sharq va G'arb madaniyatlarining o'zaro ta'siri muammosi haqidagi fikrlariga juda

Danilyevskiy fikrlariga mos keladi. Jumladan Shpengler har bir madaniyatni “mutlaqo mustaqil organizm” sifatida ko'radi, ya'ni har bir o'simlik turining o'ziga xos gullari va mevalari, o'ziga xos o'sishi misolida keltiradi.

Olimning fikriga ko'ra turli madaniyatlar tarixi ularning ko'p sonli aloqalarini ochib beradi. Shpengler fundamental tushuntirib beradi. Madaniyatlar bir-biriga ta'sir qilmaydi, balki aloqada bo'ladi, taqlid qiladi, bir-biriga homiylik qiladi va bir-biridan ma'lum shakllarni oladi. Shpengler Panteonni rekonstruktsiya qilishda sharq diniy binolariga taqlid qilinganligi, madaniyatlararo aloqalar bo'lganligiga misollar topadi. Italiyaning g'arbiy qirg'oqlaridagi shaharlarning mavr binolarida Misr madaniyati elementlari, binokorlik naqshlarini uchratish mumkin. Shpengler fikricha Misr, Xitoy va Meksikadan tashqari barcha madaniyatlar ko'proq boshqa qadimiy madaniyatlar taassurotlar vasiyligi ostida bo'lgan.[10]

Toybni sivilizatsiyalararo aloqlarning ikki turini aniqladi:

- to'g'ridan-to'g'ri ;
- o'zaro ta'sir qiluvchi (uyg'onish davri vaqtidagi).

Toybni zamonaviy sivilizatsiyalarni o'rganar ekan ularning ijtimoiy psixologik oqibatlarini aniqladi. Uning ba'zan xavfli, ba'zan halokatlidir. Xavfli jixatini olim begona elementlar yangi muhitda o'rnatishidan so'ng ularning o'z madaniyatining boshqa elementlarini jalb qilish tendensiyalariga ega bo'lishi bilan izohlaydi. [5]Begona madaniyat elementlarining boshqa madaniy kontekstida halokatli ta'sirining sababi, Toybni fikriga ko'ra, begona madaniyatni qabul qiluvchi sivilizatsiya organizmining xorijiy “dinamik kuch” ga moslasha olmasligidir. Ijtimoiy organizm ichida yangi elementlarning paydo bo'lishi yoki uning tashqaridan kiritilishi “chaqiriq-javob” holatini keltirib chiqaradi. Innovatsiya “o'zining tashqi ko'rinishi bilan eski tuzilmani o'zgartirishga majbur qiladi”.⁸ Agar ijtimoiy organizm qochishga harakat qilsa, e'tibor bermasa yoki umuman javob bera olmasa, uning parchalanish jarayoni boshlanadi. Zamonaviy sivilzatsiyalar o'rtasidagi aloqalar o'z navbatida psixologik oqibatlarga olib keladi. Shu o'rinda zealotizm biron bir sababga, e'tiqodga yoki mafkuraga muhosasiz fanatik sadoqatni anglatadi. U haddan tashqari ishtiyoq va g'ayrat bilan ajralib turadi, ko'pincha u turli fikr yoki e'tiqodlarga toqat qilmaslik darajasiga yetadi.

Yaponiyada Tokugava syogunligi davrida mamlakatni yakka lash siyosati boshqa madaniyatni inkor qilish holati hisoblanadi. Bunday holatni Xitoy “ madaniy inqilobi” davrida, Yaponiya va Usmonlilar imperiyasini g'arbiylashtirish davrida ham ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda zealotizm – avtarkiya, izolyatsiya, millatchilik, an'anaviy qonunlarning barcha amrlariga rioya qilish, begona madaniyatni tubdan rad

⁸ Тойбни А.Дж. Постигание истории: Пер. англ./ Сост. Огурцов А. П; Вступ. Ст. Уколовой. В. И.; Закл. Ст. Рашковского Е. Б. –М.: Прогресс, 1991. –С.578-579. (736с.)

etish bilan kechadigan jarayon. Gerodizm esa bir tomondan tashqi ta'sirlarga ochiqlik, nisbatan moslashuvchanlik bilan ajralib turadi. G'arb madaniyatshunoslari ikki mintaqa sivilizatsiyalar o'rtasidagi zamonaviy to'qnashuvda G'arbda ustunlik yo'qolsa keyin yanada murakkab yanada samarali "madaniy kompost" shakllanishi mumkin.[5]

Toybnining fikriga ko'ra Sharq barqarorligi va G'arb dinamizmi uyg'unligida yotadi. Har bir madaniyat uni haddan tashqari tashqi ta'sirlardan va "o'zini" yo'qotishdan himoya qiladigan "mudofaa mexanizmi" (madaniy chegaralar) mavjud. Madaniy chegaralar o'z makonining chegaralarini, dunyo haqidagi "o'ziga xos" tartib va g'oyalarini, nima to'g'ri va nima ta'qiqlangan, nima bo'lmagan sohani "xalqning madaniy-tarixiy xususiyatlari, ana'analari, tarixiy xotirasi, mentaliteti, ya'ni o'z shaxsiyatini shakllantirishga xizmat qiladigan, o'ziga xoslik".⁹ Agar o'zaro ta'sir qiluvchi madaniyatlarning qiymat yo'nalishlari o'rtasida nomuvofiqlik yoki qarama-qarshilik bo'lsa, madaniy nizo kelib chiqadi. Madaniyatlar to'qnashuvi qaytarib bo'lmaydigan bo'lib, agar raqib tomonlar o'zaro tushinishga intilmasa. qarama-qarshilikga aylanadi va shu bilan ularning hayotiylikini yo'qotadi. Moslashish jarayonida tomonlar qiymat-meyoriy munosabatlarning nomuvofiqligi (o'zgalik, begonalik) va mos kelishi (o'ziga xoslik, yaqinlik, uyg'unlik) parametrlarini aniqlaydilar, bu esa keyingisi uchun (mumkin bo'lgan) zamin tayyorlaydi. Turfa madaniyatlarning bir-birlari bilan bo'lgan munosabatlarida madaniy ochiqlik darajasi mazku madaniyat uchun sinovdan o'tkazadi.

Madaniy izolyatsiya esa turg'unlikga, rivojlanishning tormozlanishiga (birinchi o'rinda texnologik sohada) va sezilarli qoloqlikga olib keladi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, madaniyatlararo o'zaro ta'sir "har qanday madaniyat rivojlanishining muvaffaqiyatli rivojlanishining muhim shartlaridan hisoblanadi. [1] Shu bilan birga madaniyatlar tarixida o'zaro ta'sirning salbiy jixatlari haqida ham mushohada qilinadi. Bularga misol tariqasida madaniy assimilyatsiya va implantatsiya holatlarini misol qilish mumkin. Jumladan Shimoiy Amerikadagi hindularni amerikalashtirish oqibati bunga misol bo'la oladi. Boshqa tomondan madaniyatning yuzaki talqinlari moda, ommaviy madaniyat kabilarni misol qilish mumkin. Totalitar sektalarning tarqalishi, XX asrdagi mafkuraviy o'zgarishlar siyosiy rejimlarning o'zgarishi natijasida madaniy chegaralarni "yo'q qilish" jarayoni boshlandi va boshqa madaniyatlarga begona narsalar sifatida qaraldi.

Shu qatorda XIX-XX asr boshlarida boshlangan intellektual inqiroz G'arbda Sharqni qabul qilish uchun asos bo'ldi. Madaniyatshunolar fikriga ko'ra mediatorlar madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Madaniy

⁹ Лихачев Д. С. Два типа границ между культурами / Очерки по философии художественного творчества. – СПб.: Русско-Балтийский информационный центр БЛИЦ, 1999. – 192 с.

chegaralarning ochiqligi, boshqa madaniyat namunalarini qabul qilishga tayyorlik o'z madaniyatidan qoniqmaslik holatidan kelib chiqadi. G.Gesse bu haqida shunday yozadi: "Shunday davrlar bo'ladiki, butun avlod o'zini ikki davr o'rtasida topadi. Hayot tarzi shunday darakaga yetadiki, u butun tabiiylikni, urf-odatlardagi barcha davomiylikni, barcha xavfsizlik va yaxlitlikni yo'qotadi". Bunda yangiga ham eskiga ham bog'lanmagan o'ziga xos shaxs turi haqida gap ketmoqda. Hozirgi kunda dunyoning Sharq va G'arb mintaqalari madaniyatlari va rivojlanish vektorlari bilan tubdan farq qiladi. Sharq va G'arb xalqlari o'rtasidagi muloqotda dunyoqarash, mentalitet, din, va siyosiy tizimlardagi o'ziga xosliklar ayrim to'siqlarga aylanganligi sababli ularni o'zaro tushunish zarurati yuzaga keladi.

REFERENCES

1. Арутюнов С. А. Народы и культуры: развитие и взаимодействие. – М.: Наука, 1989. – С.Арутюнов С.А. Народы и культуры: развитие и взаимодействие. 154 (247 с.)
2. Гегель Г. В. Ф. Лекции по философии истории /Пер. А.М. Водена; Вступ.ст. Ю.В. Перов, К. А. Сергеев. –СПб.: Наука. 2000. -479с.
3. Выжлецова Н.В. Концепции взаимодействия культур Запада и Востока // Философия и гуманитарные науки в информационном обществе.-2016. №1.- С.56-75. URL: <http://fikio.ru/?p=2046>.
4. Н.Н. Малохова Трансформация представлений о Востоке в западной культуре //дисс.канд. философ 24.00.01. М.2005. –С.130.
5. Тойбни А.Дж. Постигание истории: Пер. англ./ Сост. Огурцов А. П;
6. Лихачев Д. С. Два типа границ между культурами / Очерки по философии художественного творчества. – СПб.: Русско-Балтийский информационный центр БЛИЦ, 1999. – 192 с.
7. Koshanova N.M. Socio-philosophical analysis of the phenomenon of "cultural crash"//European Science Methodical Journal.-2024.T.2.-№6.C.477-480.
8. N.M. Koshanova Zamonaviy jamiyatda intellektual madaniyatning rivojlanishi: muammo va imkoniyatlar//Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar.2023/12.-B.208-212.
9. N.M. Koshanova Turli tarixiy davr kontekstlarida intellektual madaniyat talvasasi//FarDU.Ilmiy xabarlar.2024.1-son.-B.73-76.
- 10.Spengler O. The Decline of the West.I.Form and Acuality [Zakat Evropy. *Ocherki morfologii mirovoy istorii Ch.I. Geshtalt I deystitelnost*] Moscow, Mysl, 1998, 663p.